

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI TURKISTONDA PAXTACHILIKNING KENGAYISHI VA JAHON BOZORI OMILLARINING TA’SIRI

Abdimurodov Shahboz Davron o’g’li

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

Yakubova Muxtaram Bakayevna

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universiteti dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22827196>

Received: 13 September 2026 • Accepted: 17 September 2026 • Published: 18 September 2026

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o’lkasida paxtachilikni rivojlantirish va paxta yakkahokimligini qaror toptirishga qaratilgan iqtisodiy siyosati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Unda Rossiya sanoatining paxta xomashyosiga bo’lgan ehtiyojining ortishi, mahalliy va Amerika paxta navlarining joriy etilishi hamda paxta maydonlarining kengayish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, paxta yakkahokimligining o’lka qishloq xo’jaligi, oziq-ovqat ta’minoti, dehqonlar turmushi va suv resurslariga ko’rsatgan salbiy ta’siri tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida paxtachilik siyosati mustamlakachilik iqtisodiyoti manfaatlariga xizmat qilgani, uning esa uzoq muddatli agrar, ijtimoiy va ekologik muammolarni yuzaga keltirgani asoslab berilgan.

Kalit so’zlar:

Turkiston, Rossiya imperiyasi, paxta, paxta yakkahokimligi, paxtachilik, agrar siyosat, mustamlakachilik iqtisodiyoti, Amerika paxta navlari, dehqon xo’jaligi, oziq-ovqat tanqisligi.

Kirish.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi ekspansiyasi, ya’ni Xiva, Qo’qon va Buxoro xonliklarining bosib olinishi natijasida Turkiston o’lkasi yagona ma’muriy birlik – Turkiston generalgubernatorligi sifatida imperiyaning agrar-iqtisodiy strategiyasiga bo’ysundirildi. Ushbu mustamlakachilik siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri “oq oltin” – paxta xomashyosini yetkazib berishni ta’minlash bo’ldi. Rossiya sanoati uchun muhim bo’lgan paxta mahsulotining eksporti imperiya iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etgani tufayli, Turkiston o’lkasi bosqichma-bosqich paxta monokulturasiga aylantirildi. Bu jarayon oqibatida oziq-ovqat uchun ajratilgan yerlar hajmining qisqarishi kuzatildi, qishloq xo’jaligi biryoqlama yo’nalishda shakllandi va bu esa mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasiga salbiy ta’sir ko’rsatdi. Paxta ekinlarining jadal ravishda ko’paytirilishi sug’oriladigan yerlarning asosiy qismini egallab, aholini majburiy mehnatga jalb etish holatlari bilan birga yuritildi. Bu holat esa o’lka agrar tizimining tabiiy rivojlanishini izdan chiqarib, mahalliy jamiyatda norozilik kayfiyatlarini kuchaytirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarixiy manbalarga ko’ra, Rossiya hukumati o’zining ichki hududlarida O’rta Osiyodan keltirilgan g’o’za, qovun va tarvuz urug’larini yetishtirishga harakat qilgan, biroq bu urinishlar tuproq va iqlim noqulayligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Natijada, sobiq xonliklar hududida paxta yetishtirishni majburan kuchaytirish imperiya uchun muqobil strategiyaga aylandi. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining iqtisodiy

siyosati doirasida olib borilgan paxta yakkahokimligi natijasida yuzaga kelgan ekologik, agrar va ijtimoiy muammolar tahlil qilinadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Turkiston o'lkasi hududida qadim zamonlardan beri paxta yetishtirilib kelinadi. Xitoy manbalarining guvohlik berishicha miloddan avvalgi II asrda Farg'ona vodiysida ko'plab shahar qishloqlar dehqonchilik va to'qimachilik bilan shug'ullanishgan. Yana shuni aytish kerakki O'zbekiston Fanlar akademiyasining Arxeologiya instituti professori Yu. A. Zadnepovskiy boshchiligidagi tadqiqotda ko'rsatilishicha Chustda miloddan avvalgi X asrga oid paxta mato parchasi topilgan. Yana bir misol Akademik S. P. Tolstov rahbarligida Xorazmni Tuproqqal'asida paxtadan tikilgan mato topib o'rganilgan (VI-VII asrga oid) XVI-XVII asrlarda Xonliklar Moskva bilan savdo aloqalarini tiklagach u yerga paxta tolasi, yigirilgan ip va boshqa mahsulotlar eksport qilingan. Umumiy qilib aytganda, paxta chigiti O'rta Osiyoga juda qadim zamonlardan, miloddan avvalgi IV asrda kelgan. Shu vajdan bo'lsa kerak, Rossiyaning Xonliklar tomonida keltirilgan paxta matolar, yigirilgan iplar, va gazlamalar orqali paxtaga bo'lgan qiziqishi ortdi.

Natijada Rossiya imperiyasi o'zining to'qimachilik fabrikalarini sifatli paxta xomashyosi bilan ta'minlash uchun, dastlabki qadamlarini o'z hududida paxta urug'larini ekishdan boshladi. Lekin bu sa'yi harakatlar iqlim sovuqligi va yerning yetarli darajada unumdor emasligi bilan natija bermaydi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi ma'lumotni keltirib o'taman, Generalgubernator hukumatning yirik vakillaridan biriga quyidagilarni xabar qilgan edi: "Siz janobi oliylariga bir tup g'o'zani yuborgan vaqtimda, ekan paxtamiz batamom pishib yetilar, degan umidda edik. G'o'zalarimiz bir necha ko'sak tukkada banogoh sovuq tushib, ularni juvonmarg qildi. Shu boisdan, kalomi ehtirom bilan siz muhtaram zotga besh donagina ko'sak yuborayotirman" [1]. Endilikda noiloj qolgan Rossiya imperiyasi boshqa siyosat yo'lini tutdi, ya'ni o'zbek xonliklarini bosib olib, unumdor yerlariga egalik qilish orqali sifatli va arzon paxta xomashyosiga erishish bo'lgan.

Rossiya imperiyasining o'zbek paxtasiga bo'lgan ehtiyojining ortishi sabablaridan yana biri bu – Amerikada fuqarolar urushining boshlanib, Amerikadan keladigan paxtaning salmog'i qisqargan holda Rossiyaga kelishidir. Rossiya imperiyasida paxtaning tan narxi oshib ketadi. Bir pud paxtaning narxi 4 yoki 5 baravarga oshib ketadi. Rossiyadagi to'qimachilik korxonalari kasodga uchray boshlaydi. Rossiyadagi 10 lab to'qimachilik korxonalari yopiladi. Shuning uchun ham Rossiya imperiyasi uchun arzon paxta yetkazib beruvchi mamlakatga muhtoj edi. 1862 yilda 1802 ming so'mlik, 1863 yilda 2903 ming so'mlik va 1864 yilda 6514 ming so'mlik o'zbek paxtasi Rossiya imperiyasiga keltirilganligi bir qator tarixiy manbalarda uchraydi.

Keyinchalik Amerikada vaziyat yaxshilansa ham, Amerikadan keltiriladigan paxta tan narxi 90 million so'mga tushar edi. Bu esa o'z navbatida Rossiya to'qimachilik korxonalarida chiqariladigan gazlamalarning narxini qimmat qilar, Yevropa bozorlarida esa Rossiyaning bunday gazlamalariga talab umuman yo'q edi. Shuning uchun ham Rossiya uchun o'z tovarlari uchun bozor va arzon baholi paxta zarur edi. Manbalarda keltirilishicha, o'sha paytdagi Buxoro paxtasi Amerika paxtasidan ko'ra eng arzonligi haqida ma'lu, ot berilgan. Xo'sh savol yuzaga keladi? Xonliklarda qanday paxta navlari yetishtirilgan va ular o'zaro raqobatda Amerika paxtalarini ortda qoldirarmidi?

Dastlab ishimizni shu savollarga javob topishga kirishamiz. XIX asr o'rtalarigacha Markaziy Osiyoda "malla paxta", "qora paxta", "qizil paxta" navlari yetishtirilgan. Bu navlarning tolasi 17-19 mm uzunlikda bo'lib, rangi biroz qizg'ish, urug'i mayda, chanoqlari esa boshqa paxta navlariga qaraganda ko'proq bo'lgan. Ushbu navlardan ochilgan paxtalarining chanoqlari bilan birga terib olinib, paxta chanoqlardan qo'lda ajratilgan.

O'sha davrda mahalliy paxta navlari orasida Xiva xonligida yetishtirilgan paxta sifati va yumshoqlik jihatidan yetakchi edi. Uning tolasi 20 mm uzunlikda bo'lib, rangi oq edi. Xiva paxtasi amerika navlaridan qolishmasdi, biroq hosildorligi juda past edi. Toshkent, Farg'ona vodiysi va Buxoroda yetishtirilgan paxta navlari o'zaro katta farq qilmagan, biroq Buxoro paxtasi biroz sifatliroq va tolasi uzunroq bo'lgan. Ushbu barcha mahalliy navlarda chanoqlar to'liq ochilmaydi, ammo ular qurib qolishga chidamli bo'lgan [2]. "Qizil po'choq" yoki ayrim manbalarda, "qizil paxta" nomlari bilan tanilgan bu paxta navi chigiti ancha yirik bo'lgan va paxta tolasi ancha oppoq

bo'lgan. Tanasi qizg'ish rangda bo'lganligidan unga mahalliy aholi shu nomni berishgan. Tolasining uzunligi 22-23 mm yetgan. "Malla g'oz" esa oldingi navga nisbatan biroz farq qilgan.

Bu nav paxta tolasining uzunligi 14-17 mm bo'gan, rangi qizg'ishroq bo'lgan lekin bu nav serhosilligi bilan ajralib turgan. Lekin keyinchalik Rossiya imperiyasi bostirib kirgandan keyin bu paxta Rossiya yengil sanoat talablariga javob bera olmay qoladi. Tolasining kataligi va sifat jihatidan ham Amerika paxtalari bilan raqobat qilmay qoladi. Shunga asoslangan holda, Rossiya imperiyasi Turkiston hududida Amerika paxta navlarini mahalliyashtirish tadbirlarini ko'ra boshlaydi. Manbalariga ko'ra Buxorolik savdogar X. Sayidumarov Amerika paxta navini Rossiya orqali Buxoroga olib keladi va keyinchalik Hojiyunusov va Spiridonovlar ham Amerika navlarini Samarqand, Xo'jand va Toshkentga olib kelib ekishadi va yuqori hosil olishadi.

Natijalar va muhokama. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, Turkiston hududida 7 xil paxta navi yetishtirilgan. Ulardan ikkitasi mahalliy va qolgan 5 tasi Amerika navlari bo'lgan. Bu xil navlar Turkiston hududida har bir desyatinaga (1. 09 ga) yer maydonidan 63-113 pud (9, 5-17. 0 s/ga) hosil olingan (1 pud – 16,4 kg ga teng). "King", "Onk- balle" navlaridan esa nisbatan yuqori hosildorlik kuzatilgan (113-109 pud). Mahalliy navlardan esa "ko'k chigit" navidan esa 99 pud hosil olingan. Navlarning ichidan eng past hosil beradigani "malla chigit " navi – 63 pud hosil olingan.

Turkiston o'lkasida Amerika navlarini mahalliyashtirish ishlari muvaffaqiyatli natija beradi. Oqibatda mo'may daromad ko'rishni boshlagan rus ma'muriyati Turkiston hududida paxta maydonlarini yanada ko'paytirish ishlarini boshlab yuboradi. "Paxta vasvasasi" avjiga minadi. Natijada, o'lkada rus paxta maydonlari va paxtachilikka bog'liq zavodlar miqdori ortib boradi. Savdo-sanoat doiralarining asosiy dardi-fikri paxtaga egalik qilish edi. Shunday qilib XIX asr oxirida paxta yakkahokimligi boshlangan va keyingi yillarda bu siyosat yanada mustahkamlanib borgan.

Endilikda bu siyosatning, Turkiston o'lkasiga qanday salbiy oqibatlari mavjudligi to'g'risida to'xtalib o'tsak. Rossiya hukumati yerning izdan chiqishiga qaramay, paxtachilikni kuchaytirishni o'z vakillaridan talab qilaverdi. Bu xususda Rossiya dehqonchilik noziri Krivoshein shunday degan edi: "Turkistonning har bir pud g'allasi Rossiyaga, rus va Sibir g'allasiga raqobatdir, ortiqcha har bir pud Turkiston paxtasi esa Amerika paxtasiga raqobatdir. Shuning uchun o'lkaga qimmatga tushsa ham g'alla keltirib berish lozimdir" [3]. Bundan kelib chiqadiki Turkistonda g'alla ekilsa, Rossiya imperiyasi g'allasiga bo'lgan talab tushib ketadi. Shuning uchun Rossiya imperiyasi o'z manfaatlarini ko'zlagan holda Turkistonda g'alla ekishni to'xtatib, uni o'rniga paxta yer maydonlarini kengaytiradi, o'lkaga esa Rossiya imperiyasi g'allasi Turkistonda yetishtiriladigan g'alla tannarxidan qimmatroqqa narxga olib kelib sotadilar. Oqibatda o'lkaga nonning narxi ko'tarilib ketadi.

Demak birinchi salbiy oqibatlaridan biri bu – ba'zi qishloq va mavzularning 80-90 % yeriga paxta ekilar, natijada u yerlarda oziq-ovqat mahsulotlari va yem-hashak tanqisligi vujudga kelardi. Ikkinchi salbiy oqibatlaridan biri bu- dehqonlarning achinarli holatidir. Unumlik Vatanlaridan necha million tonnalab "oq oltin"- paxta chiqarib berayotgan baxtsiz dehqonlarimizning xo'jaliklari bo'lgunlikka tushib, shu kunlari qanday og'irchiliklar bilan kun kechiradilar. Bu shuni nazarda tutadiki, dehqonlar paxta ekish bilan birgalikda turli xil soliq va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishi shart bo'lgan. Insofsiz soliq yig'uvchilar belgilangan miqdordan ortiqcha dehqonlardan soliqlarni yig'ib olardilar. Qarzini to'lay olmagan bechora dehqonlar xonavayron bo'lib, o'z yer- mulkidan, chorvasi bo'lsa chorvasidan mahrum bo'lardilar. Bundan tashqari dehqonlar yerda ishlash uchun qarz olib ishlashga majbur edilar.

Qarz pul esa hamisha ham berilavermagan, yoki aksincha bo'lgan holatlarda qarz miqdorini dehqonlar zarariga adashtirib berilardi. Ish haqqi esa pul ko'rinishida berilmagan balki un, g'alla, choy, gazlama va boshqa narsalar bilan to'lab borilgan. Yana bir e'tiborga molik bo'lgan holatlardan yana bittasi bu – dehqonlarning ot – aravalari bo'lmaganligi oqibatida hosilni qabul qilish punktlariga olib bora olmasliklari bo'lgan. O'z navbatida ular aravakashlarga muhtoj bo'lishgan. Aravakashlar esa dehqondan paxtani arzoniga olib firmachilarga qimmatga sotardilar. Firmachilar bo'lsa paxta tozalash zavodlariga 12-16 % foyda olish uchun berganlar. Sodda dehqon esa qarzlarini yopish yetarlicha foyda ham qolmagan. Masalan, Toshkentda 1 pud paxtaning qiymati 1,82 tiyin turgan bo'lsa, dehqonning 1 puddan qarzi 2,76 tiyinga to'g'ri kelgan.

Uchinchi salbiy oqibatlarida biri bevosita Orol bo'yi inqiroziga sabab bo'ladigan omillardan biri edi. Paxta yer maydonlari ko'paygani, unga ketadigan suv sarfi ham ko'p bo'lgan. Dalalarni sug'orish uchun esa Amudaryo va Sirdaryodan foydalanilgan. Bu esa o'z navbatida Orol dengiziga suv oquvini kamaytirgan. Natijada uning suvini kamayishiga va sho'rlanishi jarayoni boshlangan. Bu esa tabiat ekotizimiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan.

To'rtinchi salbiy oqibatlardan biri esa qishloq xo'jaligida zaharli kimyoviy moddalarning haddan ziyoda qo'llanilishi ekologik falokatga olib kelishiga sabab bo'lishi va aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishidir. Qolaversa, Markaz tomonidan belgilangan paxta rejasini to'ldirish uchun aholi qishda bo'lsa ham paxta yig'im terimiga chiqishlari majburiy qilib qo'yilgan edi. Bu esa aholi salomatligiga ham ta'sir ko'rsatardi. Sovetlar hokimiyati tomonidan dastlabki kunlardanoq yerga bo'lgan xususiy mulkchilik bekor qilindi [4]. Shu bilan birga, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti 1918 yil 28 iyunda yirik sanoat va transportni yalpisiga nasionalizatsiya qilish to'g'risida Dekret qabul qildi [5]. Xususiy mulk egalarining taqdiri nihoyatda ayanchli bo'ldi.

Sovetlar yer egalarining mulklarini musodara qilgan holda kambag'al, yersiz dehqonlarga bo'lib bera boshladi. Toshkent uyezdida 15 nafar mulk egasining mablag', yer, ish hayvoni va korxonalari tortib olindi va nazorat qilish komissiyasi tayinlandi [6]. 1918 yil mart oyida Toshkent uyezdida joylashgan «N.Pugasov Savdo uyi»ga tegishli bo'lgan mol-mulklar tortib olindi va 200 nafar kambag'aldan iborat mehnat arteli tashkil qilindi. Biroq, kambag'al dehqonlarda hosildorlik past edi. Masalan, hosildorlik o'rta hol dehqon xo'jaliklarida 20-33 sentner, boy va quloq xo'jaliklarida 55-60 sentnerni tashkil etgani holda kambag'al dehqon xo'jaligida 5,9 sentner hosil olingan. Kambag'al dehqon xo'jaligida yiliga 400-500, o'rta hol xo'jaliklarida 600-650 hamda boy va quloqlar 700-800 kilogrammdan sut sog'ib olingan [7].

Yer-mulklarni musodara qilish siyosati tufayli Andijon viloyatida 1918-1919 yillar mobaynida 40 mingdan ziyod kambag'al dehqonlar yer olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1918 yil 10 mart holatiga 8754,6 ming pud paxta va undan tayyorlangan mahsulotlar musodara qilindi va uning 7720,5 ming pud banklar va paxtachi boylarning zavodlari, turli kompaniyalarga tegishli edi, ya'ni 88 foizi mulkdorlarga taalluqli bo'lib, zo'rlik yo'li bilan o'zlashtirilgan edi [8]. Turkiston xalqlarining birinchi Muxtor hukumati zo'rlik va kuch bilan ag'darib tashlangandan so'ng, «qirg'in asosan tijorat ahliga qarshi olib borildi, ko'plab muldorlar otib tashlandi, ularning mol-dunyosi omborlar va vagonlarga tashib keltirildi [9].

1918 yil fevral oyida yirik sarmoyadorlaridan biri M. Mirmo'minboyev otib tashlandi. Voqeaning ishtirokchisi M. K. Shkarupa quyidagicha eslaydi, "Fevral oyi boshlarida Andijonga kelgan F. Kolesov ko'rsatmasiga binoan Mirkomilboyning 5.000.000 tilla mablag'i tortib olindi. Boyning o'zi uning buyrug'iga ko'ra otib tashlandi" [10] va bu holat boyning "Qo'qon Muxtoriyati rahbarlari bilan til biriktirishi sababidan" – deb asoslandi. Hamda uning barcha boyliklari musodara qilish uchun tuzilgan "Mirkomil komissiyasi" qaroriga binoan davlat tassarrufiga to'liq olindi [11].

Tugatish komissiyasi M. Mirmo'minboyevning jami 6731 pud paxtasini musodara qildi. 1918 yil o'rtalariga qadar markazda korxonalarining 11 foizi davlat mulkiga aylantirilgan bo'lsa, Turkistonda bu ko'rsatkich 45 foizni tashkil etgan. Turkiston XKS raisi F. I. Kolesov 1918 yilda xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish keng ko'lamda olib borilayotgani, natijalar yaqqol ko'zga tashlanib turgani haqida yozgan edi [12]. Mulkdorlardan musodara qilingan paxta shu darajada ko'payib ketganki, Turkiston XKS raisi F. I. Kolesov Turkistondan Markazga 1 mlrd 700 mln rubllik paxta yuborish haqida ma'lumot bergan edi [13].

1928-1929 yillarda o'tkazilgan saylov davomida Farg'onada 14,4 foiz mulkdorlar, 70,1 foiz savdogarlar, Andijonda 36,8 foiz mulkdorlar, 34 foiz savdogarlar va Toshkentda 21,8 foiz mulkdorlar, 47,6 foiz savdogarlar saylash huquqidan mahrum qilingan edi [14]. Bu raqamlardan ko'rish mumkinki, sovet hukumati qisman mulkka ega bo'lgan yoki qisman savdo faoliyati bilan shug'ullangan shaxslarni ham "sinfiy dushman" sifatida "tugatish" hamda ularga qarshi murosasiz kurash olib borish yo'lini tutgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga nisbatan olib borgan agrar-iqtisodiy siyosatida paxtachilik strategik ahamiyat kasb etgan. Dastlab Rossiya imperiyasi o'z hududida O'rta Osiyo paxta navlarini yetishtirishga uringan

bo'lsa-da, iqlim va tuproq sharoitlarining mos kelmasligi bu tashabbuslarning kutilgan natijani bermasligiga sabab bo'lgan. Shu bois Turkiston hududining tabiiy-iqlimiy imkoniyatlari, unumdor sug'oriladigan yerlari va sifatli paxta navlari imperiyaning iqtisodiy manfaatlari uchun muhim omilga aylangan. Shunday qilib, Rossiya imperiyasi va undan keyingi sovet hokimiyatining Turkistondagi paxtachilik siyosati iqtisodiy manfaat, agrar ixtisoslashuv va siyosiy nazoratning o'zaro uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'lgan.

Paxta yetishtirish hajmining oshishi va yangi navlarning joriy etilishi qisqa muddatda hosildorlik va sanoat xomashyosi ta'minotini yaxshilagan bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda oziq-ovqat xavfsizligining zaiflashuvi, dehqonlarning iqtisodiy qaramligi, xususiy mulkning tugatilishi, suv resurslarining haddan tashqari sarflanishi va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, Turkiston tarixidagi paxta yakkahokimligi nafaqat agrar siyosat, balki mustamlakachilik iqtisodiyoti, ijtimoiy transformatsiya va ekologik tarixning o'zaro bog'liq jarayoni sifatida kompleks o'rganilishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/hamid-ziyoyev-chorizm-va-paxtayakkahokimligi-1991>
2. Khalikov B. M. The history of cotton farming in Uzbekistan. – Globe Edit, 2023. – B. 6.
3. Shamsutdinov R. , Karimov Sh. , Xoshimov S. , Ubaydullayev O. Vatan tarixi-2. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2016. – 191-b.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 103.
5. Из истории гражданской войны в СССР. Сборник документов. – Москва: Наука, 1960. – С. 243-264.
6. ЎзМА, Р. 29-фонд, 3-рўйхат, 1067-иш, 12-13-варақлар.
7. Шайхов Э. Ўзбекистонда ленинча кооператив планнинг тантанаси. – Тошкент: «Ўзбекистон», 1978. – Б. 6.
8. ЎзМА, Р. 29-фонд, 3-рўйхат, 1830-иш, 59-варақ.
9. Джамалов О. Б. , Блиндер И. Б. , Ульмасов А. У. , Живаев В. К. Экономические закономерности и преимущества некапиталистического пути развития. По материалам Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 202.
10. Қайғисиз Отабоевнинг қайғулари // Ўзбегим. –Тошкент: «Звезда Востока». 1992. – Б. 79-80.
11. ЎзМА И. 1612-фонд, 1-рўйхат, 41-иш. 12-13-варақлар.
12. Акмал Икром ўғли. Миркомилбой қандай шахс эди // Шарқ юлдузи, 1992. № 5. – Б. 96.
13. ЎзМА, Р. 25-фонд, 1-рўйхат, 49-иш, 284-варақ.
14. ЎзМА, Р. 86-фонд, 1-рўйхат, 5023-иш, 119-варақ.

THESIS INFORMATION IN OTHER LANGUAGES

РУССКИЙ

РАСШИРЕНИЕ ХЛОПКОВОДСТВА В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ И ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ МИРОВОГО РЫНКА

Абдимуродов Шахбоз Даврон оглы

Студент 2-го курса магистратуры Ориентального университета

Научный руководитель: Якубова Мухтарам Бакаевна

Доцент Самаркандского государственного университета

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируется экономическая политика Российской империи, направленная на развитие хлопководства и установление хлопковой монополии в Туркестане. Рассматривается процесс увеличения потребности российской промышленности в хлопковом сырье, внедрение местных и американских сортов хлопка, а также расширение хлопковых площадей. Также анализируется негативное влияние хлопковой монополии на сельское хозяйство страны, продовольственное обеспечение, жизнь крестьян и водные ресурсы. Исследование доказывает, что хлопковая политика служила интересам колониальной экономики и породила долгосрочные аграрные, социальные и экологические проблемы.

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, хлопок, хлопковая монополия, хлопководство, аграрная политика, колониальная экономика, американские сорта хлопка, крестьянская экономика, нехватка продовольствия.

O'ZBEKCHA

THE EXPANSION OF COTTON GROWING IN TURKESTAN IN THE LATE 19TH – EARLY 20TH CENTURY AND THE INFLUENCE OF WORLD MARKET FACTORS

Shahboz Davron oglu Abdimurodov

Second-year Master's student at Oriental university

Academic Supervisor: Mukhtaram Bakayevna Yakubova

Associate professor at Samarkand state university

Abstract. This article analyzes the economic policy of the Russian Empire aimed at developing cotton cultivation and establishing cotton monopoly in Turkestan based on historical sources. It covers the process of increasing the need of Russian industry for cotton raw materials, the introduction of local and American cotton varieties, and the expansion of cotton areas. It also analyzes the negative impact of cotton monopoly on the country's agriculture, food supply, peasant livelihoods, and water resources. The study substantiates that the cotton policy served the interests of the colonial economy, and that it created long-term agrarian, social, and environmental problems.

Key words: Turkestan, Russian Empire, cotton, cotton monopoly, cotton farming, agrarian policy, colonial economy, American cotton varieties, peasant economy, food shortage.